

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 126 (1725), 2026-yil 24-iyun, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

MAQOM SAN’ATI – XALQIMIZNING MA’NAVIY QUDRATI,
ASRLAR OSHA YANGRAB KELAYOTGAN NOYOB OVOZI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Namangan shahrida uchinchi Xalqaro maqom san’ati anjumanining ochilish marosimida ishtirok etib, nutq so‘zladı.



Anjumanda UNESCO, ICESCO, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Turkiy oqsoqollar kengashi, TURKSOY, Turkiy Parlament Assambleyasi, Turkiy madaniyat va meros jamg'armasi hamda boshqa xalqaro tuzilmalar rahbarlari, chet

davlatlarning madaniyat vazirlari va muhtaram elchilari, 80 dan ortiq xorijiy mamlakatning 250 ga yaqin madaniyat va san'at vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari ushbu nufuzli anjuman xususida fikr bildirarkan, “San’at — qalblarni birlashtiradigan, odamlarga ezigulik ulashadigan ma’naviyat

ko'prigidir deb bejiz aytilmagan. Shu ma'noda, yurtimizda doimiy tus olgan ushbu anjuman — maqom san'atining umumbashariy nufuzini oshirishga xizmat qilayotgan jahon sahnasiga aylanib bormoqda”, dedi.

Chindan ham, maqom san'ati shunchaki kuy, ohang va ijro mahorati

emas, balki xalqimizning ma'naviy qudrati, yuksak ilmiy salohiyatining tom ma'nodagi oliy maqomidir. Ushbu san'at asrlar osha to'plangan tajriba, chuqur ilmiy izlanishlar va betakror iste'dod egalari mehnati samarasi hamdir.

Biz maqom san'ati deganda mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarni ko'z

oldimizga keltiramiz. Hech shubhasiz, bunda ularning beqiyos, mashaqqatli mehnati bor. Shu bilan birga, ulug' shoir va qomusiy olimlar ham ushbu san'at rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

Masalan, Abu Nasr Forobiy “Katta musiqa kitobi”da musiqa san'atining nazariy va amaliy mezonlarini ud sozi

orqali mukammal tartibga keltirgan. Buyuk mutafakkir Muhammad Xorazmiy “Ilmlar kaliti” kitobining musiqaga bag'ishlangan qismida o'sha davrdagi musiqa cholg'ulari haqida aniq ma'lumotlar bergan.

► Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEVNING UCHINCHI XALQARO MAQOM SAN’ATI
ANJUMANINING OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Muhtaram mehmonlar!
Xonimlar va janoblari!

Betakor O'zbekiston zaminida uchinchi bor o'tkazilayotgan Xalqaro maqom san'ati anjumanida dunyoning turli qit'a va mamlakatlardan tashrif buyurgan tanikli san'at va madaniyat namoyandalari ko'rib turganimdan mamnunman.

San'at — qalblarni birlashtiradigan, odamlarga ezigulik ulashadigan ma'naviyat ko'prigidir deb bejiz aytilmagan. Shu ma'noda, yurtimizda doimiy tus olgan ushbu anjuman — maqom san'atining umumbashariy nufuzini oshirishga xizmat qilayotgan jahon sahnasiga aylanib bormoqda.

Bugungi tadbirimizda UNESCO, ICESCO, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi,

Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Turkiy oqsoqollar kengashi, TURKSOY, Turkiy Parlament Assambleyasi, Turkiy madaniyat va meros jamg'armasi hamda boshqa xalqaro tuzilmalar rahbarlari, chet davlatlarning madaniyat vazirlari hamda muhtaram elchilari, 80 dan ortiq xorijiy mamlakatlarning 250 ga yaqin madaniyat va san'at vakillari ishtirok etayotgani anjumanimizga alohida fayz va shukuh bag'ishlamoqda.

Fursatdan foydalanib, uzoq-yaqin yurtlardan tashrif buyurgan aziz mehmonlarimizga o'zining samimiy minnatdorligimni bildiraman.

Yangi O'zbekistonga xush kelibsiz!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

O'zbekiston zaminidagi har bir tuman, har bir viloyat, har bir hudud o'ziga

xos san'ati va madaniyati, qadriyat va an'analari, mashhur ijodkorlariga ega. Bugungi anjumanimiz o'tayotgan so'lim va go'zal Namangan diyori ham ana shunday tabarruk maskandir. Namangan o'zining tadbirkorlari, obod shahar va qishloqlari, sanoat, qishloq xo'jaligi, ilm-fan, madaniyat, san'at hamda sportdagi yutuqlari, bilimli va shijoatli yoshlari bilan alohida e'tirofqa loyiq.

Shu kunlarda ushbu fayzu tarovatli zaminda yuksak darajada tashkil etilgan, butun dunyoga mashhur 65-xalqaro Namangan gullar festivali shodu xurramlik bilan davom etmoqda. Va men bugungi imkoniyatdan foydalanib, butun xalqimizni, barcha nafosat shaydolarini xursand qilayotgan ana shunday ulkan bayram bilan siz, azizlarni — mehnatkash va mirishkor,

oqko'ngil, pok niyatli Namangan ahlini yana bir bor samimiy tabriklayman.

Mazkur festival Yangi O'zbekiston sharoitida oddiy gullar ko'rgazmasidan xalqaro miqyosda e'tirof etilayotgan katta madaniy hodisa, o'ziga xos milliy brend darajasiga ko'tarilganini biz nafaqat Farg'ona vodiysi, balki butun mamlakatimizdagi ulkan o'zgarishlar samarasi sifatida qabul qilamiz.

Bugungi kunda ko'rkam chamanzorga aylangan Namangan diyorida joriy yilning o'zida 150 million tupdan ortiq gul ko'chatlari o'tqazilgani va bu natija xalqaro miqyosda tan olinib, “Ginnessning rekordlar kitobi”ga kiritilgani har tomonlama e'tibor va tahsinga sazovor, ibrat olishga arziydigan voqea, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz.

► Davomi 2-betda

TADBIRKORLIKDA ILG'OR TAJRIBA
YARATAYOTGAN, ZAMONAVIYLIK
ASOSIDA TARAQQIYOTGA YUZ
TUTAYOTGAN NAMANGAN

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev 23-iyun kuni joylarda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari hamda turli sohalarda amalga oshirilayotgan loyihalar va joriy qilingan ilg'or yechimlar bilan tanishish maqsadida tashrif bilan Namangan viloyatida bo'ldi.

Namangan haqida gap ketganda xayolimizga viloyatning tadbirkor, ishbilamon, mehnatsevar odamlari keladi. Chunki bugun namanganlik tadbirkorlar nafaqat ichki, balki tashqi bozorlarni ham zabt etyapti. Shunga yarasha viloyat iqtisodiyoti, odamlar turmush tarzi tobora yaxshilanib bormoqda.

Sharoit, imkoniyat va qo'llab-quvvatlov bo'lgan joyda rivojlanish tez ko'zga tashlanadi. Odamlar turmushi yaxshilanib, iqtisodiyot yuksaladi. Obodlik, farovonlik belgilari hayotning oddiy o'zgarishlarida namoyon bo'la boshlaydi.

► Davomi 3-betda

180 MILLIARD DOLLARLIK
YUKSAK MARRA:
OCHIQLIKDAN STRATEGIK BARQARORLIK SARI

Jahon iqtisodiyoti beqarorlik, geosiyosiy qarama-qarshiliklar va global raqobatning yangi bosqichiga kirib borayotgan bugungi sharoitda har qanday mamlakat taraqqiyoti mezoni uning iqtisodiy qudrati, investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro hamkorlar ishonchini qanchalik qozona olgani bilan belgilanmoqda.



Poytaxtimizda bo'lib o'tgan beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi ana shu haqiqatning yana bir amaliy tasdiqi bo'ldi. Mazkur forum O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi o'rni tobora mustahkamlanib borayotganini ko'rsatdi.

Forum yalpi majlisida davlatimiz rahbari mamlakat iqtisodiyotining bugungi natijalari va istiqbollari alohida to'xtalib, muhim bir raqamni tilga oldi: “Ko'pchilikning yodida, biz to'rt yil avval bo'lib o'tgan ilk forumda 2026-yil yakuniga kelib O'zbekistonning yalpi ichki mahsulotini 100 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilgan edik. Jadal sur'atlarda o'sib borayotgan iqtisodiyotimiz bu yil 180 milliard dollardan oshishi kutilmoqda!”.

► Davomi 4-betda



Amudaryo tumani “Toshqal’a” mahalla fuqarolar yig'inida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari bilan ishlash tizimi ijobiy samara berib kelmogda. Mahallada jami 630 ta xonadon mavjud bo'lib, ularda 950 ta oila istiqomat qiladi. Umumiy aholi soni 3345 nafar. Nisbatan katta hududda yashovchi insonlarning muammosi, quvonchi va tashvishi bevosita mahalla faollari, xususan, ijtimoiy xodimlarning doimiy e'tiborida.

Mahalla ijtimoiy xodimi Doniyor Jumamurodov zimmasiga aynan shunday ulkan va mas'uliyatli vazifa yuklatilgan. U aholining 12 ta turli toifadagi qatlami bilan tizimli ravishda ishlab, muhtoj

insonlarga davlatning g'amxo'rligini yetkazishda muhim ko'prik vazifasini o'tamoqda.

► Davomi 5-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING UCHINCHI XALQARO MAQOM SAN’ATI ANJUMANINING OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Ming rahmat sizlarga, qo’llaringiz hech qachon dard ko’rmasin!
Aziz yurtdoshlar!
Namangan buyuk shoir va mutafakkir Boborahim Mashrab, Nodim, Fazli, Majzub Namangoni, So’fizada, Ibrat, Usmon Nosir, Chusti, Habib Sa’dulla kabi atoqli so’z san’atkorlarini kamolga yetkazgan saxovatli zamindir. Bu ulug’ zotlar qatorida milliy musiqa madaniyatimiz rivojida o’chmas iz qoldirgan Ro’zimatxon Isaboyev, Vahobjon Abdullayev, Mahmudjon Muhammadov, Ergash Yo’ldoshev, Saidjon Kalonov, Tursunoy Mamedova, Kamoliddin Rahimov, Habiba Oxunova, O’rinboy Nuraliyev, Hadiya Yusupova, Jo’raxon Rahimov singari el tanigan hofizlar, sozanda va bastakorlarning nomlarini bugun ham hurmat bilan tilga olamiz.
Ushbu o’lmas siymolarning boy ijodiy merosi yangi-yangi san’atkorlar avlodi uchun mahorat maktabi bo’lib xizmat qilmoqda.
Qadrli do’stlar!
UNESCO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro’yxatiga kiritilgan maqom naqadar buyuk va noyob san’at ekanini barchamiz yaxshi bilamiz va xalqaro hamjamiyatning bunday e’tirofini yuksak qadrlaymiz. Zero, maqom bu oddiy musiqa emas. Maqom — millatning xotirasi, xalqning qalbi va asrlar osha yangrab kelayotgan ma’naviy ovozidir. Unda ajdodlar

hikmati, orzu-umidlari, dardi va quvonchi mujassam, desam, o’ylaymanki, fikrimga qo’shilasiz.
Yurtimizda o’tkazilayotgan uchinchi Xalqaro maqom san’ati anjumanining asosiy maqsadi — ana shunday noyob merosni asrab-avaylash, o’rganish va targ’ib etish, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishdan iborat.
So’nggi yillarda Yangi O’zbekistonda maqom san’ati nufuzini milliy va xalqaro miqyosda yangi bosqichga ko’tarish madaniyat sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo’nalishiga aylandi.
Bugun nafaqat maqom ijrochiligi, balki uning nazariy asoslari ham chuqur o’rganilmoqda. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abdulqodir Marog’iy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Komil Xorazmiy, Abdurauf Fitrat, shuningdek, Yunus Rajabiy, Fayzulla Karamatov, Is’hoq Rajabov kabi allomalarning ilmiy asarlari, maqomshunoslik an’analari davom ettirilmoqda.
Maqom san’atining nazariy, tarixiy va falsafiy masalalarini o’rganadigan maxsus ilmiy kengashlar faoliyati yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Biz sohada yuksak bilim va malakaga ega kadrlarni tarbiyalash vazifasiga alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Bu borada “musiqa maktabi — ixtisoslashgan maktab — oliygoh” tizimi yo’lga qo’yilgani yoshlarimizning aniq dasturlar asosida uzluksiz ta’lim olishiga mustahkam zamin bo’lib xizmat qilmoqda.
Yaqinda madaniyat va san’atning 21 ta yo’nalishida, xususan, maqombo’yicha ham ijodiy birlashma tashkil qildik. Ushbu birlashmalar jamiyatimizning

eng quyi bo’g’ini bo’lgan mahalladan boshlab ijodkor yoshlarni topish, ularni qo’llab-quvvatlash va iste’dodini yuzaga chiqarishga ko’mak beradi. Endilikda yosh maqomchilarning ijodiga yangi nafas olib kirish uchun har bir mahalla, tuman, viloyat va respublika miqyosida tanlovlar o’tkazamiz.
Qadrli do’stlar!
Hozirgi vaqtda “Shashmaqom” durdonalari, Farg’ona — Toshkent va Xorazm maqomlarining o’rganilmagan matnlari hamda noyob ijro uslublari qayta tiklanmoqda. Ayni yo’nalishda yirik ilmiy va akademik nashrlar, ovozi arxivlar tayyorlanmoqda.
Biz ana shunday ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Yangi Toshkentda muhtasham Maqom markazini barpo etishga kirishdik. Ushbu maskanni Dunyo maqom markazi deb nomlasak va uning qoshida Xalqaro maqom akademiyasini tashkil etsak, nima deysizlar?
Ishonamanki, bu madaniy koshona jahon maqom san’atining yirik ilmiy-tadqiqot markaziga aylanadi. Akademiyada o’zbek maqom maktablari bilan bir qatorda arab, turk, fors, tojik, hind va boshqa Sharq mumtoz musiqa yo’nalishlari ham o’qitiladi. Mazkur dargohda maqomni sevadigan dunyo yoshlari uchun “ustoz-shogird” an’analari asosida mahorat amaliyoti dasturlari yo’lga qo’yiladi va bunga maxsus grantlar ajratiladi.
Markaz qoshida dunyo miqyosidagi eng noyob musiqiy qo’lyozmalar, tovush yozuvlari va nota arxivlarini o’zida mujassam etgan Xalqaro raqamli

kutubxona va laboratoriya tashkil etiladi.
Bir so’z bilan aytganda, yangi majmua soha olimlari va san’atshunoslarni birlashtiradigan global ilmiy-akademik platforma bo’ladi.
Dunyo xalqlarining maqom, mug’om, mukam, dastgoh kabi mumtoz musiqa namunalari haqidagi ma’lumotlarni yagona raqamli makonga ko’chirish vaqtini keldi. Shu bois, maqom san’ati olimlari va ijodkorlarini Jahon maqom antologiyasini yaratishga chaqiraman. Bunda dunyodagi barcha maqom asarlari, notalar, audio va video yozuvlar, ilmiy tadqiqotlar yagona raqamli platformaga joylashtiriladi, maqom ijrosi bo’yicha mobil ilova ishga tushirilib, uning fonotekasi doimiy ravishda yangilab boriladi.
O’ylaymanki, bugungi anjumanda ishtirok etayotgan san’atkor va musiqashunoslar bu muhim jarayonga munosib hissa qo’shadilar.
Maqom ilmini rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash maqsadida xalqaro jamg’arma tashkil qilishni taklif etamiz. Ushbu Jamg’arma grantlari maqom bo’yicha ilmiy izlanishlarni, noyob manbalarni o’rganish, innovatsion loyihalarni qo’llab-quvvatlash va soha vakillarini moddiy rag’batlantirishga yo’naltirilsa, ayni muddao bo’ladi.
Shu bilan birga, Jamg’arma hisobidan Xalqaro maqom mukofoti ham ta’sis etilib, maqom rivojiga katta hissa qo’shgan olim va san’atkorlar har ikki yilda rag’batlantirib borilsa, o’ylaymanki, bu ham maqom san’atining nufuzini oshirishga xizmat qiladi.
“Shashmaqom”ning 6 ta yo’nalishi

bo’yicha hududlarimizda “Maqom yo’li” madaniy-turistik marshrutini yaratamiz. Jumladan, Buxoroda “Buzruk” maqomi; Samarqandda “Rost” maqomi; Xivada “Xorazm” va “Iroq” maqomi; Qo’qonda “Navo” maqomi; Shahrisabzda “Dugoh” maqomi; Toshkentda “Segoh” maqomi bo’yicha turizm-tematik ko’chalar tashkil etiladi. Kafe va restoranlar, istirohat bog’lari va xiyobonlarda maqom qo’shiqlari doim yangrab turadi.
Tadbirimizda qatnashayotgan ozarbayjonlik san’atkorlar mug’omi bilan, turkiyalik ijodkorlar muqomi, tojikistonlik hofizlar maqomi, Hindiston badiiy jamoalari “raga”si, Afrika qit’asi vakillari “nuba”si bilan “Maqom yo’li” madaniy-turistik marshrutida faol ishtirok etsalar, dunyo bo’ylab maqomning xalqaro obro’-e’tibori yanada yuksaladi deb ishonaman.
Yurtimizda maqom asarlarining oltin fondini yaratib, xalqimizga yetkazib kelayotgan Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambliga milliy davlat ansambli maqomini beramiz. Aminmanki, ushbu yuksak e’tirof mashhur ijodiy jamoani yanada ruhlantirib, milliy san’atimizning durdona asarlarini jahon sahnalariga olib chiqishda yangi kuch-g’ayrat va ilhom bag’ishlaydi.
Hurmatli anjuman qatnashchilari!
Hozirgi globallashuv davrida maqom — inson qalbi va yuragida egzu tuyg’ularni tarbiyalaydigan, shu asosda yoshlarning ma’naviy olamini yuksaltiradigan hayotbaxsh sarchashma, desak, to’g’ri bo’ladi.
Mamlakatimizda yaxshi an’anaga aylangan Xalqaro maqom san’ati

anjumani maqomning umrboqiy merosini kelajak avlodlarga yetkazib beradigan xalqaro muloqot maydoniga aylanib bormoqda. Ezgu maqsad yo’lida boshlagan bu ishlarimiz sizlar kabi fidoyi insonlarning qo’llab-quvvatlashi bilan kelgusida ham izchil davom etadi deb ishonaman.
Muhtaram do’stlar!
Har qanday davlatning kuch-qudrati uning faqat iqtisodiy boyligi, yer osti resurslari bilangina emas, yuksak madaniyati va san’ati bilan ham o’lchanadi. Shu sababli biz bugun sizlar bilan birga ana shunday bebaho ma’naviy xazina — maqom san’ati bayramini xalqaro darajada nishonlamoqdamiz.
Ishonchim komil, anjuman doirasida o’tkaziladigan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada bildiriladigan takliflar, mahoratli ijrochilarning chiqishlari nafaqat soha rivojiga, balki xalqlar o’rtasida qardoshlik aloqalarini yanada mustahkamlashga munosib hissa qo’shadi.
Barchamizning tilagimiz yakdil va hamohang: maqom san’atining har bir so’zi tinchlikka xizmat qilsin, har bir navosi xalqlar o’rtasidagi do’stlikni mustahkamlasin, har bir sadosi kelajak avlodlarga milliy g’urur va ma’naviy kuch bag’ishlasin.
Maqomni sevganlar hech qachon kam bo’lmasin!
Uchinchi Xalqaro maqom anjumanini ochiq deb e’lon qilaman.
Barchangizga sihat-salomatlik, jo’shqin ilhom, yangi ijodiy yutuqlar, anjuman ishiga esa ulkan muvaffaqiyat tilayman.

MAQOM SAN’ATI – XALQIMIZNING MA’NAVYI QUDRATI, ASRLAR OSHA YANGRAB KELAYOTGAN NOYOB OVOZI

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz ham musiqiy asarlar bitgan. Shu orqali maqom san’ati rivoj topgan. Ayni sabab tufayli ham maqom xoslar san’ati, deya e’tirof etilgan. Xoslikning eng muhim jihati esa ushbu san’at o’zida ko’plab bilimlarni jamlaganida, desak mubolag’a bo’lmaydi.
Mamlakatimizda Uchinchi Uyg’onishga poydevor qo’yishga qaratilgan xalqchil siyosat zahirida ham ana shunday katta hayotiy haqiqatlar mujassam.
Prezidentimiz islohotlarning ilk davridayoq boqiy merosimizni yanada ommalashtirish, xalqqa yaqinlashtirish borasida ish boshlagan edi. Masalan, 2017-yil 17-noyabr kuni “O’zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorni imzolagandi. 2018-yil sentabrda esa ilk bor Xalqaro maqom san’ati anjumani o’tkazildi. Shu tariqa mamlakatimizda xoslar san’atini ommalashtirish orqali butun jamiyatni yuksaltirish, mumtoz san’at maqomiga ko’tarishga qaratilgan amaliy harakatlar boshlandi.
Maktablarda har bir o’quvchi hech bo’lmaganda bitta sozni chala olishi



kerak degan tashabbus ilgari surildi. Buning amaliy natijasi o’laroq musiqa ta’lim maskanlari musiqa asboblari bilan ta’minlana boshladi. Maqsad esa musiqa orqali inson intellektini yuksaltirish,

“**San’at katta kuchga ega. U xalqlarni, madaniyatlarni bir joyga jamlaydi. San’atkor va ijodkorlarni birlashtiradi. An’anaviy tus olgan Xalqaro maqom san’ati anjumani buning yaqqol isbotidir.**



tafakkur olamini boyitishdir. Zero, yuqorida qayd etilganidek, qomusiy olimlarimiz musiqani chuqur ilmiy jihatdan o’rgangan, bilgan. Mumtoz badiiy asarlar asrlar mobaynida avlodlar o’rtasida ruhiy uzviylikni saqlab, inson ma’naviy olamini boyitib, yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashdek ulug’ maqsadlarga xizmat qilgan. Shu ma’noda, ushbu anjuman maqsadi shunchaki san’atni saqlab qolish, uni ulug’lashdangina iborat emas, balki xalqimizning teran ildizlaridan quvvat

olib, ko’zlangan baland marralarni zabt etish yo’li — o’zlikka qaytishdir!
Ayni sabab tufayli bugun mamlakatimizda ilm-fan rivoji, yoshlarni har jihatdan qo’llab-quvvatlash bilan bir paytda xalqning teran ruhiyati, egzu niyatlarining ifodasi bo’lgan maqom san’atiga ham alohida e’tibor berilmoqda.
Nutqdaqaydetilganidek, bugun nafaqat maqom ijrochiligi, balki uning nazariy asoslari ham chuqur o’rganilmoqda. Maqom san’atining nazariy, tarixiy va falsafiy masalalarini o’rganadigan

maxsus ilmiy kengashlar faoliyati yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Sohada yuksak bilim va malakaga ega kadrlarni tarbiyalash vazifasiga alohida e’tibor qaratilyapti. Bu borada “musiqa maktabi — ixtisoslashgan maktab — oliygoh” tizimi yo’lga qo’yilgani yoshlarimizning aniq dasturlar asosida uzluksiz ta’lim olishiga mustahkam zamin bo’lib xizmat qilmoqda.
Yaqinda madaniyat va san’atning 21 ta yo’nalishida, xususan, maqom bo’yicha ham ijodiy birlashma tashkil qilingani, ushbu birlashmalar jamiyatning eng quyi bo’g’ini bo’lgan mahalladan boshlab ijodkor yoshlarni topish, ularni



qo’llab-quvvatlash va iste’dodini yuzaga chiqarishga ko’mak berishi belgilangani yanada e’tiborga molik.
Hozir “Shashmaqom” durdonalari, Farg’ona — Toshkent va Xorazm maqomlarining o’rganilmagan matnlari hamda noyob ijro uslublari qayta tiklanmoqda. Ayni yo’nalishda yirik ilmiy va akademik nashrlar, ovozi arxivlar tayyorlanmoqda.
Prezidentimiz shu kabi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Yangi Toshkentda muhtasham Maqom markazini barpo etishga kirishilgani va

San’at katta kuchga ega. U xalqlarni, madaniyatlarni bir joyga jamlaydi. San’atkor va ijodkorlarni birlashtiradi. An’anaviy tus olgan Xalqaro maqom san’ati anjumani buning yaqqol isbotidir.
Joriy yil 26-iyungacha davom etadigan anjumanda “Sharq maqomotining yangi tendensiyalari: an’ana va innovatsiyalar uyg’unligi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ham tashkil etiladi.

Dilshod ULUG’MURODOV,
Avazbek XUDOYQULOV,
“Yangi O’zbekiston” muxbirlari



Munosabat

INVESTITSIYA – ILG'OR TEKNOLOGIYALAR VA ZAMON BILAN HAMNAFAS TARAQQIYOT

O'zbekiston iqtisodiyoti transformatsiyalashuvining faollashuvi, biznes uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani milliy iqtisodiyotimizga dunyodagi yirik investorlarning qiziqishini yanada oshirmoqda.



Rustam HASANOV,
Makroiqtisodiy va hududiy
tadqiqotlar instituti
bo'lim boshlig'i, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

Beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi nafaqat ishtirokchilar soni, balki qarorlar ko'lami va kelajak loyihalarining miqyosi bilan ham tarixga kirdi. Forumda 100 dan ortiq mamlakatdan 4000 dan ziyod ishtirokchi qatnashdi. Bu ko'rsatkich tadbirning Markaziy Osiyodagi eng yirik investitsiya platformasiga aylanganini ko'rsatadi.

Eng asosiysi ishtirokchilarning umumiy iqtisodiy salohiyatidir. Forumda ishtirok etgan kompaniyalar va investitsiya fondlari 42 milliard dollarga yaqin moliyaviy va boshqa aktivlarni jalb qilishga kelishdi. Bu O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 38 foiziga teng. Tabiiyki, katta sarmoya iqtisodiy o'sish sur'atini keskin oshirish imkoniyatini beradi. Natijada mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish tizimi barqaror rivojlanadi, eksport salohiyati ortadi.

Forum nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Tadbirning ochilish marosimida 62 ta xalqaro delegatsiya



vakillari ishtirok etgani, 8 ta davlatning hukumat rahbarlari nutq so'zlagani izdihomning nufuzini ko'rsatdi. Forumda Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, YEBRD, BRIKS, Yangi taraqqiyot banki kabi nufuzli moliya institutlari rahbarlari ham qatnashdi.

Dunyo investorlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga qiziqishi bejiz emas. Buning zamirida mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgani, jalb qilingan sarmoya samara berayotgani turibdi. Binobarin, O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti o'tgan yili 7,7 foiz o'sdi va 147 milliard dollardan oshdi. Bu ko'rsatkich Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yuqori o'sish sur'atlaridan.

Ayni paytda forum kun tartibida ko'rib chiqilgan ustuvor yo'nalishlar butun Markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatlariga mos tushishini alohida qayd etish lozim.

Forumda Prezidentimiz mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining oltila strategik ustuvor

yo'nalishini belgilab berdi. Hamkorlikda kapital bozorini rivojlantirish, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishni yanada jadallashtirish orqali zararli uglerodlar ta'sirini kamaytirish, sun'iy intellektni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga keng joriy etish, geologiya resurslarini o'zlashtirishning yangicha mexanizmini ishga tushirish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish imkoniyatlaridan keng foydalanish va investorlar huquqini himoya qilishning qonunchilik asoslarini yanada kuchaytirish shul jumlasidan.

So'nggi besh yilda mamlakatimizga 123 milliard dollar sarmoya jalb qilindi. Yalpi investitsiyalar hajmi esa 150 milliard dollardan oshdi. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonga xalqaro sarmoyadorlarning qiziqishi yildan yilga oshib borayotganidan dalolat beradi.

Forum doirasida imzolangan kelishuvlar o'nlab yirik loyihalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Xususan, Yangi Toshkent xalqaro aeroportini qurish bo'yicha davlat-xususiy sheriklik shartnomasi imzolanishi katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, bu xalqaro aviatashuvlar hajmini keskin oshirib, mamlakatimizda yuqori texnologiyali mahsulotlarni eksport qilishning transport imkoniyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu kelishuv bo'yicha 1310 gektar maydondagi aeroport kompleksi 2030-yil oxiriga qadar ishga tushiriladi. U yiliga 20 million yo'lovchi va 300 ming tonna yuk tashish quvvatiga ega bo'ladi. Ikkiti 4 kilometrli uchish-ko'nish yo'lagi, 208 ming kvadrat metr yo'lovchi terminali va 98 samolyot to'xtash joyi quriladi.

Xalqaro forumda energetika mavzusi ham alohida e'tibor markazida bo'ldi. O'zbekiston 2030-yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazishni maqsad qilgan. Hozir mamlakatimizda quyosh va shamol elektr stansiyalarining umumiy quvvati 4 gigavatt dan oshgan. Yana 19 gigavattli quvvat loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi iqtisodiy diplomatiyaning yangi bosqichini boshlab berdi. Forum doirasida 79 ta biznes yig'ilish o'tkazildi. Tadbirni yoritish uchun 41 mamlakatdan jurnalistlar, 123 ta ommaviy axborot vositasi



vakillari akkreditatsiyadan o'tdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yildagiga nisbatan ikki baravar ko'p.

Anjuman natijalari O'zbekiston iqtisodiyotidagi qator sifat o'zgarishlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, Toshkent xalqaro moliya markazi tashkil etiladi. 2076-yilgacha soliq imtiyozlari va Common Law asosidagi maxsus huquqiy rejim joriy etiladi.

Ikkinchidan, muqobil investitsiya fondlari to'g'risidagi qonun qabul qilinmoqda. Bu xususiy sarmoya va venchur kapital uchun huquqiy asos yaratib, xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar beradi.

Umuman, forum yakuni bo'yicha o'n milliard dollarlik investitsiya kelishuvlariga erishildi. Bu yangidan yangi ishlab chiqarish quvvatlari, bir necha o'n minglab yangi ish o'rinlari, yuqori eksport salohiyati, pirovardida, aholi farovonligi oshishi, byudjetimizga barqaror soliq tushumlari demakdir.

Bugungi kunda erishilgan natijalar, jumladan, 180 milliard dollarlik iqtisodiy hajmga yetib borish kutilmasi ishonch arxitekturasining amaliy natijasidir. Bu raqam bir davrning yakuni emas, yangi bosqichning boshlanishi sifatida talqin etiladi.



“Zamonaviy taraqqiyot modeli ekologik barqarorliksiz uzoq muddatli istiqbolga ega bo'la olmaydi. Shu nuqtayi nazardan, 2023-2026-yillarda “yashil iqtisodiyot”ga o'tish O'zbekiston investitsiya siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri bo'ldi.



180 MILLIARD DOLLARLIK YUKSAK MARRA: OCHIQLIKDAN STRATEGIK BARQARORLIK SARI

Boshlanishi 1-betda

Bu oddiy iqtisodiy ko'rsatkich emas. U so'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, iqtisodiy liberrallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish borasidagi izchil siyosatning amaliy natijasidir. Zero, qisqa tarixiy davr ichida iqtisodiyot hajmini qariyb ikki baravar oshirishga erishish har qanday davlat uchun strategik ahamiyatga ega voqe'lik sanaladi.

So'nggi yillarda yurtimizga 150 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya jalb qilingani, shundan 123 milliard dollari aynan keyingi besh yil hissasiga to'g'ri kelayotgani O'zbekistonga ishonch mustahkamlanib borayotganini anglatadi. Chunki investitsiya qarorlari ko'p hollarda ishonch muhiti va siyosiy barqarorlikka tayanadi. Davlat tomonidan yaratilgan ochiq va taxmin qilinishi mumkin bo'lgan iqtisodiy makon tashqi hamkorlar uchun muhim signal vazifasini bajara boshladi.

Darhaqiqat, muayyan davrga kelib milliy iqtisodiyot oldida yangi vazifalar va yangi chaqiriqlar paydo bo'lgandi. Valyuta konvertatsiyasidagi chekllovlar, tashqi savdodagi ma'muriy to'siqlar hamda investitsiya muhitidagi noaniqliklar mamlakatning xalqaro iqtisodiy jarayonlarga to'liq integratsiyalashuvini cheklab turgan omillardan biri edi. Holbuki, kapital tabiatan erkinlikka intiladi. U shaffof qoidalar, ochiq bozor va uzoq muddatli barqarorlik hukm suradigan makonni tanlaydi. Agar iqtisodiy muhit yetarlicha ochiq bo'lmasa, investitsiya o'z kelajagini boshqa manzillar bilan bog'laydi.

Shu bois, iqtisodiyotni liberrallashtirish va ochiq bozor tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar boshlab berildi. Valyuta bozori erkinlashtirilishi mazkur o'zgarishlarning eng muhim va tarixiy bosqichlaridan biri bo'ldi. Bu orqali iqtisodiyotni ma'muriy boshqarish mexanizmlaridan bozor munosabatlari asosida rivojlantirishga o'tish uchun mustahkam zamin yaratildi.

Mazkur qarorning ahamiyatini faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'lchab bo'lmaydi. U, avvalo, ishonchga tayangan siyosiy va iqtisodiy tanlov edi. Davlat o'z iqtisodiyotining raqobatbardoshligiga ishonch bildirdi, xalqaro hamjamiyatga esa ochiq va teng huquqli hamkorlikka tayyor ekanini namoyon qildi. Aynan shu yondashuv keyingi yillarda investitsiya siyosatida yangi davrni boshlab berib, O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi o'imi va nufuzini sezilarli darajada mustahkamladi.

2018-yilda 18 ta davlatlararo rasmiy tashrif amalga oshirilib, natijada 52 milliard dollarlik 1080 ta loyiha bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Bu ko'rsatkichlar diplomatik faollikning bevosita iqtisodiy natijaga aylanganini ko'rsatadi. Agar 52 milliard dollarlik kelishuvlarni mamlakat yalpi ichki mahsuloti bilan solishtirsak, bu hajm milliy iqtisodiyot ko'lamiga nisbatan juda katta strategik resurs ekanini anglash mumkin. Demak, tashqi siyosat va investitsiya siyosati o'zaro uyg'unlashib, iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylandi.

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik ham ana shu ishonch muhitining mantiqiy davomi bo'ldi. Jumladan, World Bank, European Bank for Reconstruction and Development, Asian Development Bank va Islamic Development Bank ishtirokida 8,5 milliard dollarlik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Bu nafaqat infratuzilmani modernizatsiyalash, balki iqtisodiy boshqaruv madaniyatini yangilash va institutsional salohiyatni oshirishga xizmat qildi.

Natijada mamlakatga yo'naltirilayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya hajmi sezilarli darajada o'sdi. 2019-yilda xorijiy investitsiya 4,2 milliard dollarni tashkil etib, 2018-yildagiga nisbatan 3,7 barobar o'sdi. Bu o'sish iqtisodiyotdagi sifat o'zgarishlarining aniq ifodasi edi. Shuningdek, investitsiyaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga yetgani mamlakat iqtisodiyotining investitsiyaga tayangan o'sish modeliga o'tayotganini ko'rsatdi. Bu kelgusida ishlab chiqarish quvvatlari kengayishi va bandlik o'sishi uchun mustahkam zamin yaratadi.



Tahlil



180 MILLIARD DOLLARLIK YUKSAK MARRA: OCHIQLIKDAN STRATEGIK BARQARORLIK SARI



Ayni paytda mamlakatning ilk bor xalqaro kredit reytinglariga ega bo'lishi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik yevroobligatsiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirishi global moliyaviy tizimga integratsiyaning amaliy ifodasi bo'ldi. Bu O'zbekistonning faqat investitsiya qabul qiluvchi emas, balki xalqaro moliyaviy munosabatlarda mustaqil va ishonchli ishtirokchi sifatida shakllanayotganini ko'rsatdi.

Shu tariqa mazkur davrdagi islohotlar iqtisodiy taraqqiyotda yangi sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirdi. Agar dastlabki maqsad iqtisodiyotni ochish bo'lgan bo'lsa, keyingi bosqichda ushbu ochiqlikni barqaror investitsiya oqimiga, investitsiyani esa uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga aylantirishga erishildi. Bunday jarayon O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi mavqeiini tubdan o'zgartirib, uni ishonchli va istiqbolli hamkor sifatida namoyon qildi.



Qayta baholash imkoniyati

2020-yil insoniyat tarixida global iqtisodiy tizimni keskin o'zgartirib yuborgan burilish nuqtasi bo'ldi. COVID-19 pandemiyasi natijasida ishlab chiqarish zanjirlari uzildi, kapital harakati sekinlashdi, xalqaro savdo hajmi keskin qisqardi. Uzoq yillar davomida cheksiz imkoniyatlar makoni sifatida qaralgan globallashtirish o'zining o'zaro bog'liqlikka asoslangan zail jihatlarini ham namoyon qildi. Shu sharoitda ko'plab davlatlar iqtisodiy barqarorlik va investitsiya siyosatini tubdan qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldi.

O'zbekiston uchun 2020-2022-yillar davri nafaqat iqtisodiy sinov, balki institutsional yetuklik imtihoni ham bo'ldi. Oldingi yillarda shakllangan ochiqlik va liberrallashtirish siyosati aynan global inqiroz sharoitida real sinovdan o'tdi. Investitsiya oqimlari qisqarishi, tashqi talab pasayishi va logistika-dagi uzilishlar milliy iqtisodiyot uchun jiddiy bosim yaratdi. Ammo shu sharoitda davlatning

moslashuv qobiliyati va tizimli barqarorlikni saqlab qolish salohiyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Inqiroz mohiyatan tanazzuldan ko'ra qayta baholash imkoniyati ekanini amaliyot yana bir bor isbotladi. Pandemiya sharoitida davlat iqtisodiy siyosat markaziga inson omilini qo'yish zarurati anglandi. Sog'liqli saqlash tizimi, ijtimoiy himoya va aholi bandligini ta'minlash masalalari ustuvor yo'nalishga aylandi. Bu investitsiya tushunchasini kengaytirib, uni infratuzilma yoki sanoat loyihalar bilan birga inson kapitaliga yo'naltirilgan strategik sarmoya sifatida talqin qilishga olib keldi.

2020-yilda jahon miqyosida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya hajmi keskin kamaygan bir sharoitda ko'plab davlatlar ichki resurslar hisobidan iqtisodiy faollikni saqlab qolishga urindi. O'zbekiston ham bu davrda davlat investitsiyalarini kengaytirish, infratuzilma va sanoat loyihalarini izchil davom ettirish orqali iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatladi.

2021-2022-yillarda iqtisodiy faollik bosqichma-bosqich tiklana boshladi. Investitsiya siyosatida diversifikatsiya jarayoni kuchaydi. Energetika, raqamli iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi va logistika sohalariga yo'naltirilgan loyihalar iqtisodiyotning yangi o'sish nuqtalarini shakllantirdi. Ayniqsa, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari kengayishi investitsiya jarayonlarining institutsional barqarorligini yanada mustahkamladi.

Pandemiya raqamli transformatsiya jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi. Elektron davlat xizmatlari, onlayn-tender platformalari va masofaviy boshqaruv tizimlari investitsiya muhitini yanada shaffof va samarali qildi. Bu jarayon iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini oshirdi. Investitsiya muhiti qanchalik raqamlashgan bo'lsa, shaffoflik va ishonch darajasi shunchalik ortadi.

Inqiroz davrida barqarorlik tushunchasi ham yangi mazmun kasb etdi. Ilgari u tashqi ta'sirlardan himoyalash sifatida talqin qilingan bo'lsa, endilikda barqarorlik moslashuvchanlik orqali o'lchana boshladi. Ya'ni barqaror iqtisodiyot o'zgarishlarga tez va samarali javob qaytara oladigan tizimdir. 2020-2022-yillarda O'zbekiston investitsiya siyosati aynan shu moslashuvchanlik tamoyilini namoyon qildi.

Shu bilan birga, global geoiqtisodiy vaziyat ham yanada murakkablashdi. Transport yo'laklari va savdo zanjirlaridagi uzilishlar yangi logistika yondashuvlarini talab qildi. Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, tranzit salohiyatini oshirish va yangi bozorlarga chiqish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bu investitsiya siyosatining mintaqaviy o'lchamini yanada kengayitirdi.

Mazkur davr O'zbekiston uchun "ochiqlikdan barqaror ochiqlikka" o'tish davri bo'ldi. Agar avvalgi bosqich integratsiyaga kirish davri bo'lgan bo'lsa, pandemiya sharoitida uni saqlab qolish va mustahkamlash sinovdan o'tdi. Investitsiya siyosatining mohiyati esa aynan inqiroz sharoitida strategik yo'nalishni yo'qotmaslikda namoyon bo'ldi.

Ishonch arxitekturasining amaliy natijasi

2023-yildan boshlab O'zbekiston investitsiya siyosati sifat jihatidan yangi, ancha murakkab va strategik bosqichga qadam qo'ydi. Agar avvalgi davrlar ochiqlik va liberalizatsiya, keyingi bosqich esa global inqiroz sharoitida moslashuv bilan tavsiflangan bo'lsa, bu davr strategik barqarorlik va chuqur institutsionallashuv bosqichi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunda asosiy masala investitsiya hajmini oshirishdan ko'ra uning sifatini, texnologik mazmunini va uzoq muddatli samaradorligini ta'minlashga qaratildi.

Investitsiya ustuvorliklari ham sezilarli darajada o'zgardi. Yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat, raqamli iqtisodiyot, IT infratuzilma va zamonaviy logistika markazlari asosiy yo'nalishga aylandi. Bu o'zgarish mohiyatan xomashyoga tayangan modeldan intellektual va texnologiyaga asoslangan iqtisodiyotga o'tishni anglatadi.

Yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarish mehnat unumdorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishning muhim omili bo'ldi. Investitsiya innovatsiyani joriy etish va global qiymat zanjirlariga chuqur integratsiya qilish mexanizmlari aylandi. Shu sababli investitsiya siyosatining samaradorligi yaratilayotgan texnologik ekotizim bilan o'lchana boshlandi.

Zamonaviy taraqqiyot modeli ekologik barqarorliksiz uzoq muddatli istiqbolga ega bo'la olmaydi. Shu nuqtayi nazardan, 2023-2026-yillarda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish O'zbekiston investitsiya siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Quyosh va shamol energetikasi loyihalariga xorijiy investitsiya jalb etilishi energetika tizimini diversifikatsiyalash bilan birga ekologik bosimni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

"Yashil" energetika loyihalari faqat energiya ishlab chiqarishni anglatib qolmay, yangi texnologiyalar transferi, kadrlar salohiyatini oshirish va energetik mustaqillikni mustahkamlashni ham nazarda tutadi. Bu jarayon tabiat va iqtisodiyot o'rtasidagi muvozanatni qayta tiklashga qaratilgan. Agar industrial davr tabiatni resurs sifatida ko'rgan bo'lsa, zamonaviy yondashuv uni iqtisodiy tizimning teng huquqli shergiri sifatida qabul qiladi.

2023-2026-yillarda O'zbekiston o'zini Markaziy Osiyoda muhim logistika va tranzit markaz sifatida shakllantirish yo'lida harakat qilmoqda. Geografik joylashuv tabiiy ustunlik bo'lsa-da, uni real iqtisodiy qiymatga aylantirish uchun infratuzilma va institutsional islohotlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, transport yo'laklarini rivojlantirish, chegarabo'yi savdoni kengaytirish va mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi.

Mintaqaviy savdo hajmi oshishi va qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar faollashuvi investitsiya muhitini yanada jozibador qilmoqda. Chunki investor uchun bozor hajmi, logistika imkoniyatlari va mintaqaviy barqarorlik juda muhim.

Shu orqali investitsiya siyosati milliy chegaralar doirasidan chiqib, mintaqaviy va global iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog'lanib bormoqda. Bu esa O'zbekistonni xalqaro iqtisodiy tizimning faol va integratsiyalashgan ishtirokchisi sifatida namoyon etmoqda.

Bugungi kunda erishilgan natijalar, jumladan, 180 milliard dollarlik iqtisodiy hajmga yetib borish kutilmasi ishonch arxitekturasining amaliy natijasidir. Bu raqam bir davmning yakuni emas, yangi bosqichning boshlanishi sifatida talqin etiladi.

Chunki zamonaviy global iqtisodiyotda raqobat resurslar hajmidan ko'ra tizimlar barqarorligi, institutlar ishonchligi va strategik moslashuv qobiliyati bilan belgilanmoqda. Shu ma'noda, O'zbekiston tanlagan yo'l iqtisodiy o'sishdan ko'ra kengroq ma'no kasb etadigan taraqqiyot modeli — ishonchga tayangan barqaror rivojlanish modeli sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ochiqlik, moslashuv va chuqur islohotlar asosida shakllangan bu tizim mazmunini yagona xulosa ifoda etadi. Taraqqiyot uzluksiz islohotlar jarayoni bo'lib, doimiy yangilanish va bosqichma-bosqich takomillashish orqali amalga oshadi. Shu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi investitsiya hisoblanadi. Investitsiya iqtisodiyotga yangi imkoniyatlar olib kiradi, ishlab chiqarishni kengaytiradi, yangi loyihalarini hayotga tatbiq etadi va barqaror o'sish uchun mustahkam asos yaratadi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Shukronalik



EZGU NIYATLAR TUTASHGANDA

Yurtimizda nuroniylar, mehnat faxriylari, jamiyat rivojiga munosib hissa qo‘shgan insonlarga qaratilayotgan yuksak e‘tibor va g‘amxo‘rlikka yana bir bor amin bo‘ldik. Bu yil ko‘plab o‘zbekistonlik “Prezident hojilari” degan ulkan sharaf bilan haj amallarini ado etish baxtiga muvassar bo‘lgani ushbu xayrli ishlarning yuksak ifodasidir. Ular orasida men ham borligimdan juda mamnunman.



G‘ofur ABDILAKIMOV,
O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti o‘quv-uslubiy boshqarmasi boshlig‘i, professor

Keyingi yillarda bu borada salmoqli ishlar bajarildi. Misol uchun, ta'lim olish imkoniyati kengaygani, kasb-hunar o'rganish tizimi hamda yoshlar ta'lim berilgan. Xususan, ta'lim tizimida islohotlar tufayli yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Ko'plab yoshlar uchun ilgari tasavvur qilish qiyin bo'lgan imkoniyatlar ochildi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida shakllanayotgan bilim va mehnat bozorining real talabi o'rtasida muayyan tafovut saqlanib qolmoqda. Yana bir muhim jihat — zamonaviy ko'nikmalar masalasi. Hozir chet tilini bilish keng imkoniyatlar eshigini ochuvchi

Keyingi yillarda bu borada salmoqli ishlar bajarildi. Misol uchun, ta'lim olish imkoniyati kengaygani, kasb-hunar o'rganish tizimi hamda yoshlar ta'lim berilgan. Xususan, ta'lim tizimida islohotlar tufayli yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Ko'plab yoshlar uchun ilgari tasavvur qilish qiyin bo'lgan imkoniyatlar ochildi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida shakllanayotgan bilim va mehnat bozorining real talabi o'rtasida muayyan tafovut saqlanib qolmoqda. Yana bir muhim jihat — zamonaviy ko'nikmalar masalasi. Hozir chet tilini bilish keng imkoniyatlar eshigini ochuvchi



vosita bo'lib qoldi. Strategiyada 450 ming yoshni xorijiy tillarni bilish bo'yicha B2 darajaga olib chiqish vazifasi belgilanganining o'ziyoq bu yo'nalishga nisbatan e'tibor ko'lamini ko'rsatib turibdi. Kasbiy sertifikatlash tizimini kengaytirish, zamonaviy kasblar bo'yicha tayyorlash, xalqaro dasturlar orqali tajriba o'tirtish imkoniyatlarini ko'paytirish ham ayni ehtiyoj hosilasi.

Mamlakatimizda har yili mehnat bozoriga minglab yangi kadrlar kirib kelmoqda. Bu jarayonni ortga surib ham, e'tibordan chetda qoldirib ham bo'lmaydi. Shu sabab strategiyada har yili 600 ming yoshning bandligini ta'minlash vazifasi qo'yilgan. Yoshlarning o'zi ham bu yo'nalishda aniq istaklarga ega.

100mingga o'tirg'itilgan qiz o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomada respondentlarning chorak qismidan ko'prog'i o'z biznesini boshlash niyatida ekanini bildirgan. Shu ma'noda, strategiyada tadbirkorlikka doir mexanizmlar aniq belgilab qo'yilgan. Xususan, "Yangi avlod tadbirkorlari" dasturi orqali 20 ming yoshni dunyoning nufuzli

jamiyatning intellektual salohiyatini boyitadi. Shu maqsadda ilg'or ijodkorlar uchun turli mukofotlar joriy etish rejalashtirilgan. Bu e'tibor san'at va adabiyotga qiziqadigan, yangi g'oyalari bilan maydonga chiqayotgan yoshlar uchun qo'shimcha turki bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Respublika miqyosida o'tkazilishi rejalashtirilgan "O'zbekiston yoshlari sevadi", "Hayot fest", "Talaba Fest", "Talaba Expo 2026" kabi loyihalar ham shu maqsadga yo'naltirilgan. Robototexnika yo'nalishidagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, turli qiziqishlarga ega yoshlarni bir maydonga jamlash orqali yangi hamkorlik va g'oyalari uchun zamin yaratiladi.

Yana bir muhim jihat: strategiyada ruhiy xavf guruhi kiruvchi yoshlar ulushini 40 foiz kamaytirish vazifasi belgilangan. Avvalo, bu ko'rsatkichning o'zi muammoni tan olishga jur'at topilganidan darak. Chunki ko'p yillar davomida psixologik salomatlik masalasi yopiq mavzulardan biri bo'lib kelgan. Endi ushbu yo'nalishga tizimli yondashuv taklif etilmoqda. Aniqlik, tunu kun faoliyat yuritadigan psixologik aloqa markazini tashkil etish, yoshlarning murojaat qilish imkoniyatini kengaytirish, yordamni tezkor va qulay shaklda yetkazish nazarda tutilgan.

Jismoniy faollik masalasiga berilayotgan e'tibor ham ayni qarashning mantiqiy davomidir. Sport inson salomatligini mustahkamlash vositasi bo'lish bilan bir qatorda intizom, iroda va jamoada ishlash ko'nikmalarini qaror toptiradi. Strategiyaga ko'ra, sport bilan muntazam shug'ullanuvchi yoshlar ulushi 25 foiz oshiriladi. Bu maqsad infratuzilma imkoniyatlari, qiziqishni rag'batlantirish va ommaviy sport madaniyatini kengaytirish bilan bevosita aloqador.

Shu bilan birga, yoshlar bilan ishlashda eng katta xatolardan biri ularning nomidan gapirish, muammolarini esa ularning ishtirokisiz hal etishga urinishdir. Keyingi yillarda yoshlar bilan muloqot bo'yicha yangi tajribalar shakllandi. Jumladan, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan muntazam ijtimoiy so'rovlar o'tkaziladi. Ularining ehtiyojlari, kutilmalari va kundalik hayotda duch kelayotgan qiyinchiliklari o'rganib boriladi. Shu ma'lumotlar asosida Milliy yoshlar indeksi shakllantiriladi. Bu ko'rsatkich hududlar kesimidagi vaziyatni ko'rish, muammolari aniqlash va ko'rilayotgan chora-tadbirlarning ta'sirini baholash imkonini beradi. Har payshanba kuni yoshlar bilan muloqot o'tkazilishi ham bevosita aloqani saqlab turishga xizmat qiladi. Raqamli platformalar ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda. Bunda bandlik, ta'lim, ijtimoiy faollik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotlar muntazam yangilanadi.

Bugun dunyo tajribasidan uzilgan holda raqobatbardosh avlodni tarbiyalash mushkul. Shu bois, strategiyada 100 ming yoshning global dasturlarda ishtirokini ta'minlash vazifasi qo'yilgan. Xalqaro forumlar, global tashabbuslar, yoshlar anjumanlari orqali yigit-qizlar tajriba almashish, o'z bilim va salohiyatini namoyish etish imkoniga ega bo'ladi. BMT, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikdagi amaliyot dasturlari ham shu maqsadga xizmat qiladi. Qisqasi, bunday keng qamrovli, puxta yondashuv ustuvor bo'lgan jamiyatda yoshlar dasturiy siyosatining kuzatuvchisiga emas, uning faol ishtirokchisiga ham aylanadi. O'zbekistonning e'tang'i qiyofasi ham ko'p jihatdan bugun yoshlar bilan qanday muloqot qilayotganimiz, ularni qay darajada qo'llab-quvvatlayotganimiz va ularga qanchalik ishonayotganimizga bog'liq.

Muborak haj ziyorati bir umrlik orzum edi. Ko'p yillar davomida yurtimiz farovonligi, mahalla tinchligi va aholi osoyishtaligi yo'lida mehnat qildim. Mahalla raisi sifatida faoliyat yuritgan yillarim odamlarning dardi bilan yashab, muammolarini hal etishga ko'maklashdik. Yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash, oilalar o'rtasida ahillik muhitini mustahkamlash, ehtiyojmand insonlarga yordam berish kabi xayrli ishlar doimo e'tiborimiz markazida bo'ldi.

Mehnatlarimiz Prezidentimiz tomonidan e'tirof etilganidan oilamiz a'zolari, yaqinlarim va mahalladoshlarim ham juda xursand bo'ldi. Kutilmaganda quvonchli xabar keldi. Viloyat hokimligi mutasaddilari kelib, yo'llanmani topshirib, tabrikhladi.

Haj ziyoratiga izzat-hurmat bilan kuzatildi. Undan oldin Islom sivilizatsiyasi markaziga ham ekskursiyaga bordik. Prezidentimiz tashabbusi bilan yangidan ochilgan maskan bebaho durdona ekaniga amin bo'ldik. Haj ziyoratiga kuzatish va xayrlashuv marosimlari hayotimizning eng quvonchli damlari sifatida yodimizda



Azamat MAVLONOV
Xatirchi tumani

qoldi. Saudiya Arabistonida ham juda iliq kutib olindik. Bizga zarur barcha sharoit yaratib berildi. Bu ham O'zbekistonimizning xalqaro maydonda obro'si va hurmati baland ekanligini his qildik.

Oramizda turli sohada fidoyilik ko'rsatgan insonlar bor edi. Ushbu jihat ham yurtimizda hech bir kishining mehnati rag'batsiz va e'tibordan chetda qolmasligidan dalolat.

Ziyoratda mamlakatimizdagi tinchlik bardavom, aholi turmushi yanada farovon bo'lishini so'rab duo qildik. Shunday kunlar uchun shukronalar aytidik. Bundan buyon ham xalqimizning ishonchini oqlab, mahallalarda tinchlik-totuvlik va ahillikni ta'minlash, yoshlarga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, ehtiyojmand oilalarga ko'maklashishga hissamizni qo'shib yashaymiz.

Ijtimoiy himoya

MEHR VA G‘AMXO‘RLIK BILAN

Boshlanishi 1-betda

— Ijtimoiy himoya tizimining eng asosiy vazifalaridan biri — o'zgarlar parvarishiga muhtoj, yolg'iz yashovchi insonlarni qo'llab-quvvatlash. Toshqal'a mahallasida bunday toifaga kiruvchi bir kishi yashaydi. Unga muntazam ravishda zarur maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatib kelinmoqda, — deydi Doniyor Jumamurodov. — Shuningdek, 2-toifa, ya'ni nogironligni bo'lgan shaxslar bilan ishlash ham doimo diqqat markazimizda turadi. Mahallamizda nogironligi bo'lgan 109 shaxs ro'yxatga olingan. Ular holati va ehtiyojidan kelib chiqib, tegishli guruhlariga ajratilgan. Bundan tashqari, hududimizda nogironligi bo'lgan 17 ta bola ham yashaydi. Ularning barchasiga individual yondashilish, tibbiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatilmoqda.

Aholi farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishida kam ta'minlangan oilalar bilan ishlash tizimi ham shaffof va adolatli asosda tashkil etilgan. Hozirgi kunda mahalla bo'yicha jami 70 ta oila maxsus ijtimoiy reyvestrga kiritilgan





Manzilli va hayotiy ijtimoiy himoyaning samarasi



Har bir jamiyatning ijtimoiy qiyofasi, avvalo, aholining ehtiyojmand qatlamlariga ko'rsatilayotgan e'tibor, mehr va g'amxo'rlik bilan o'lchanadi. Bugungi kunda yurtimiz ko'ylab mahallabay ishlash tizimi orqali har bir oila, har bir fuqaro davlatning doimiy e'tibori va ijtimoiy himoyasi qamroviga olinmoqda.

Amudaryo tumanidagi Yuqoriqishloq mahallasida ham bu borada keng ko'lamli, tizimli va samarali ishlar qilinmoqda. Hududga birlashtirilgan ijtimoiy xodim Dildora Kenjayeva o'z kasbiga fidoyilik bilan yondashayotir.

— Yuqoriqishloq mahallasidagi jami 624 ta xonadonda 763 ta oila va 2438 aholi istiqomat qiladi. Bu raqamlar ortida shuncha inson taqdiri, orzu-umidlari va albatta, turli ijtimoiy ehtiyojlari yotibdi, — deydi Dildora Kenjayeva. — Mahallamizda nogironligi bo'lgan jami 77 shaxs yashaydi. Hozirgi kunda ijtimoiy reyvestrga hududdagi 59 ta oila kiritilgan. Ularning 10 tasi to'liq davlat ta'minotida, 39 tasi kambag'al, 10 tasi esa kambag'allik chegarasidagi oila. Berilayotgan maqsadli ko'maklar ularning turmush tarzini yaxshilashga va qiyinchiliklarni yengib o'tishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda ota-onasi xorijda mehnat migratsiyasida yurgan 22 bolaga vasiylik yoki homiylik tayinlangan. Mehr va e'tiborga muhtoj bo'lgan qarovsiz va nazoratsiz qolmasligi uchun ularning yashash holati muntazam ravishda, har chorakda monitoring qilinmoqda.

Amudaryo tumanidagi bunday manzilli va hayotiy ijtimoiy himoya tadbirlari inson qadriini ulug'lashdek euzu maqsadga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy xodimlarning mas'uliyati va sermahsul faoliyati tufayli har bir oila davlat e'tiborida.

Ehtiyojmand oila bolalariga davanlanish uchun vaucher



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Davlatimiz tomonidan yuritilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri, shubhasiz, inson salomatligini asrash, kelajagimiz egalari bo'lgan bolalarning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishini ta'minlashdir. Prezidentimiz qaroriga muvofiq, respublikamiz bo'ylab amalga oshirilayotgan mehr-saxovat tadbirlari doirasida tibbiy-ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, og'ir kasallikka chalingan, ammo vaqtda zarur choralar ko'rilsa, nogironlikning oldini olish mumkin bo'lgan kasalliklarni tezkor davolash masalasi kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilandi. Bu orqali ko'plab bolajonlarning sog'lig'ini tiklash va kelgusida to'laonli hayot kechirishi uchun mustahkam zamin yaratish maqsad qilingan.

Ushbu ezgu tashabbusning joylardagi ijrosi qat'iy nazoratga olingan bo'lib, hududlardagi tibbiyot muassasalari orqali manzilli ishlar qilinmoqda. Xususan, Amudaryo tumanida ham ushbu qaror ijrosi doirasida keng ko'lamli amaliy ishlar boshlab yuborilgan. Operativ yo'l bilan davolanish orqali nogironlikning oldini olish maqsadida Amudaryo tumaniga jami 58 ta maxsus vaucher ajratilgan. Bu vaucherlar nafaqat beg'araz moliyaviy ko'mak, balki ota-onalar uchun farzandlarining sog'lom kelajagiga bo'lgan umid timsolidir. Bugungi kunga qadar tumanida mazkur yo'nalishdagi o'rganishlar va tibbiy xulosalar asosida jami 27 bolaga vaucherlar topshirildi va tezkor davolanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Yuqoridagi qarorga muvofiq, mamlakatimizda og'ir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan 10 ming bolada jarrohlik amaliyoti o'tkazish, onkologik, gematologik va onkogematologik tashxis qo'yilgan 2,3 ming bemorni tibbiy tekshirish, ularni davolash va

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

